

## Xorazm viloyat statistika boshqarmasi



### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida Xorazm viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

#### RAQAMLAR

**3949,4 mlrd.so'm**  
Sanoat ishlab chiqarish  
hajmi

**110,8 %**  
sanoat ishlab chiqarish  
indeksi

**2485,4 mlrd.so'm**  
Iste'mol tovarlari ishlab  
chiqarish hajmi

**126,5 %**  
o'sish sur'ati

**62,9 %**  
Iste'mol tovarlarining jami  
sanoat ishlab chiqarish  
hajmidagi ulushi


**32,0 %**  
sanoat ishlab chiqarishda  
kichik biznesning ulushi

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019 yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 3949,4 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 110,8 % ni tashkil etdi.


Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 10,3 % ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish - 13,2 % ni, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 16,2 %ni tashkil qildi. Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 0,3 % ga, kamayish kuzatildi.



### 2019 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



## 2018 yilning yanvar-iyun oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi.



Tog'- kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 0,1 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,0034 % ni tashkil etdi. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3748,5 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 94,9 % ni tashkil etdi. O'z navbatida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushini avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish 41,7 %, to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish 20,9 %, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 18,9 % ni tashkil etganligini ko'rish mumkin.



**Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish ulushi - 41,7 %**



**To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 20,9 %**



**Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish ulushi - 18,9 %**

**Ishlab chiqaradigan sanoati (qayta ishlash sanoati)da yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

Mahsulot turlari		<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>
Gidro elektr stansiyalari ishlab chiqargan elektr energiyasi – mln kVts		224,5	88,3
Issiqlik energiyasi – ming Gkal.		72,1	48,7
Engil avtomobillar		23044	14164
Yuk avtomobillari – dona		3749	3807
Aroq – ming litr		433	723,4
Uzum vinosi yoki uzum turupini disterlash natijasida olingan spirt nastoykalari konyak spirtidan tashqari – ming litr		12,2	10,6
Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari – ming litr		550,0	610,0
Yumshoq bug'doy va spelta uni – tonna		40049,1	38174,4
Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar – tonna.		0	119,3

<b>Mahsulot turlari</b>		<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>
Birinchi navli undan tayyorlangan bug'doy noni, og'irligi 600 gr. (buxanka) – tonna		840,6	626,6
Milliy non (yopgan non) – tonna		361,6	71,4
Tozalangan o'simlik yog'i – tonna		9778,8	12915,6
Xo'jalik sovuni – tonna		4144,0	5555,0
Paxta tolasi –tonna		36323,4	44576,0
Paxta chigiti-tonna		57385,4	69103,0

Yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, quyidagi mahsulot turlari kamayganini ko'rish mumkin:

1. Aroq 290,4 ming litrga;
2. Tabiiy oq va qizil desert uzum vinolari 60 ming litrga;
3. Makaron mahsulotlari va shu kabi xamirdan tayyorlangan mahsulotlar 119,3 tonnaga;
4. Yuk avtomobillari 58 donaga;
5. Tozalangan o'simlik yog'i 3136,8 tonnaga;
6. Paxta tolasi 8252,6 tonnaga;
7. Paxta chigiti 11717,6 tonnaga kamaygan.

Yuqoridagilardan tashqari qolgan mahsulotlar ishlab chiqarish oshganini ko'rish mumkin.




Joriy yilning yanvar-iyun oylarida elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 176,1 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 4,5 % ni) tashkil etdi. Shu bilan birga ishlab chiqarish indeksi 116,2 % ni tashkil etdi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 24,7 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ni) tashkil etdi.

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida eng yuqori ulushni, suv yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash 70,5 %, chiqindilarni yig'ish, ishlov berish, yo'qotish, o'tilizasiya qilish 29,1 % ni tashkil etdi.




**2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**



Diagrammada ko'rinib turibdiki, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ulushi yuqori bo'lgan Xazorasp tumani 45,9 foiz, Urganch shahri 22,3 foiz, Xonqa 6,5 foiz, Shovot 5,9 foiz, Gurlan tumani 4,3 foizni va Bog'ot 3,5 foiz hamda eng past bo'lgan Yangibozor tumani 1,6 foiz, Xiva tumani 1,3 foiz hamda 1,3 foiz Xiva shahriga to'g'ri keladi.

**2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi (% da)**




**2019 yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini ishlab chiqarish. (mlrd.so'm)**

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<i>2019 yil yanvar-iyun</i>	<i>2018 yil yanvar-iyun</i>
<b>Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi</b>	<b>3949,4</b>	<b>2644,9</b>
<b>Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash</b>	<b>0,1</b>	<b>0,1</b>
<i>ulardan:</i>		
Tog'-kon sanoatiga bog'liq boshqa faoliyat	0,1	0,1
<b>Qayta ishlash faoliyati</b>	<b>3748,5</b>	<b>2534,1</b>
<i>undan:</i>		
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish	643,0	476,6
Ichimliklar, tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish	105,4	84,5
To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish	828,5	643,9
Kiyim ishlab chiqarish	13,6	28,5
Teri va unga tegishli mahsulotlar ishlab chiqarish	4,2	3,2
Yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materilallari, ishlab chiqarish	2,8	2,2
Qog'oz va qog'oz mahsulotlarini ishlab chiqarish	7,7	7,8
Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish	0,4	0,4
Neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish	0,1	0,1
Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish	7,5	6,1
Asosiy farmasevtika	3,6	3,2
Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish	28,8	27,1
Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish	140,4	98,3
Metallurgiya sanoati	9,0	5,6
Mashina va uskunalardan tashqari tayyor buyumlar ishlab chiqarish	68,4	62,7
Kompyuter va elektron optikali mahsulotlar ishlab chiqarish	0,1	0,1
Elektr uskunalari ishlab chiqarish	15,2	13,3
Boshqa toifalarga kiritilmagan mashina va uskunalari ishlab chiqarish	136,5	86,7

<b>Iqtisodiy faoliyat turlari</b>	<b>2019 yil yanvar-iyun</b>	<b>2018 yil yanvar-iyun</b>
Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar ishlab chiqarish	1648,5	907,3
Mebel ishlab chiqarish	17,4	10,6
Boshqa tayyor buyumlar ishlab chiqarish	57,6	58,7
Mashina va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish hamda tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish	9,8	7,2
<b>Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash</b>	<b>176,1</b>	<b>89,2</b>
<b>Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish</b>	<b>24,7</b>	<b>21,4</b>


Faoliyat turlari bo'yicha mahsulot ishlab chiqarish yanvar-iyun oylarida Oziq-ovqat mahsulotlari, To'qimachilik mahsulotlari, avtotransport vositalari, treylerlar va yarim pritseplar, Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sezilarli darajada o'sgan.

#### **Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi.**






## Xorazm viloyatida 2019 yil yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi %da




2018 yil yanvar-iyun oylarida o'rta-yuqori texnologiyali ishlab chiqarish 38,8 foizni tashkil qilgan va 2019 yil yanvar-iyun oylarida bu ko'rsatkich 45,8 foizga o'sgan bo'lsa, o'rta-quyi texnologiyali ishlab chiqarish 7,6 foizdan 6,5 foizga va quyi texnologiyali ishlab chiqarish 49,8 foizdan 42,6 foizga kamaygan.

Shuningdek, viloyat sanoatida yuqori texnologiyali tarmoqda 3,7 mlrd.so'mlik (2018 yil yanvar-iyun oylarida 3,3 mlrd.so'm), o'rta-yuqori texnologiyali tarmoqda 1807,7 mlrd.so'mlik (1013,4 mlrd.so'm), o'rta-quyi texnologiyali tarmoqda 265,5 mlrd.so'mlik (201,0 mlrd.so'm), quyi texnologiyali tarmoqda 1680,6 mlrd.so'mlik (1316,4 mlrd.so'm) mahsulotlar ishlab chiqarilgan.

### 2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)




## 2018 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 2145,3 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sura'ti 108,9 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xazorasp tumani 4206,9 ming so'mdan 2019 yil yanvar-iyun oylarida 7424,8 ming so'mga, Urganch shahri 4274,5 ming so'mdan 6185,9 ming so'mga, Xonqa tumani 1045,3 ming so'mdan 1391,8 ming so'mga oshganligi kuzatildi.


## 2019 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (mlrd. so'm)




Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash, kichik biznes subektlari tomonidan zamonaviy texnologiyalar olib kelinishi natijasida viloyatda 2485,4 mlrd.so'mlik xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 126,5 foizni tashkil etdi.

Xalq iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda oziq-ovqat mahsulotlari 638,3 mlrd.so'mni va 1847,1 mlrd.so'mlik nooziq-ovqat mollari ishlab chiqarilib, o'tgan 2018 yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan mos ravishda o'sish sur'ati 106,1 foiz va 135,4 foizni tashkil qildi. Jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 62,9 foizni (2018 yil yanvar-iyun oylarida 79,3 foiz) tashkil qildi.


### 2019 yil yanvar-iyun oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish. (foizda)



### 2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida viloyat jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste'mol tovarlari ulushi (% da)



## 2019 yil yanvar-iyun oylarida shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi. (ming so'mda)



2019 yil yanvar-iyun oylarida aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarish viloyat bo'yicha 1350,0 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sura'ti 124,3 foizga o'sishi kuzatildi. Shahar va tumanlar kesimida tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2018 yil yanvar-iyun oylarida Xazorasp tumani 3344,6 ming so'mdan 2019 yil yanvar-iyun oylarida 5965,0 ming so'mga, Urganch shahri 2330,8 ming so'mdan 2890,8 ming so'mga, Urganch tumani 319,2 ming so'mdan 458,7 ming so'mga, Bo'got tumani 253,5 ming so'mdan 455,5 ming so'mga o'sgani kuzatildi.